

**TARJIMONSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING DOLZARB
MUAMMOLARI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA YONDASHUVLAR**

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari

Universiteti 1-bosqich talabasi

Hamidova Zarnigor

zarnigorhamidova75@gmail.com

Ilmiy rahbar: Tursunnazarova Elvira Takhirovna

Annotatsiya. Ushbu maqola tarjimashunoslik va tilshunoslikning bugungi kundagi dolzarb muammolari, zamonaviy ilmiy yondashuvlar, tarjima ta'limi samaradorligini oshirish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Tayanch so'zlar: tarjimashunoslik, tilshunoslik, xalqaro anjuman, zamonaviy tendensiyalar, ilmiy yondashuvlar, tarjima ta'limi, korpus lingvistikasi, kognitiv yondashuv, multimodal tarjima, xalqaro hamkorlik, tarjima texnologiyalari, innovatsion metodlar, CAT-tools, tarjima sifati, ilmiy integratsiya.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida tarjimashunoslik va tilshunoslik sohalari xalqaro aloqalar, ilm-fan va madaniyatlararo muloqotning muhim omillaridan biri sifatida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tashkilotlar, transmilliy kompaniyalar va davlatlararo hamkorlik jarayonlarining ortib borishi samarali tarjima kompetensiyalariga bo'lgan talabni keskin oshirmoqda. Shu bilan birga, tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari — korpus lingvistikasi, kompyuter lingvistikasi, kognitiv yondashuvlar, tarjima texnologiyalari va multimodal tarjima kabi yo'nalishlar ham jadal rivojlanib bormoqda.

Ana shunday sharoitda tarjimashunoslik va tilshunoslikning zamonaviy muammolari, ilmiy yondashuvlari hamda xalqaro hamkorlik istiqbollari muhokama qilish maqsadida 2025-yil 20-noyabr kuni O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida "Tarjimashunoslik va tilshunoslikning dolzarb muammolari: zamonaviy tendensiyalar va yondashuvlar" nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi. Tadbir Tarjimonlik fakulteti, Roman-german tarjimashunosligi kafedrasi tomonidan tashkil etildi. Anjumanni universitetning xalqaro masalalar bo'yicha prorektori Nasirov Abdurahim Abdimutalipovich ochib berdi.

Mazkur anjuman tarjimashunoslik nazariyasi va amaliyoti, tilshunoslikning yangi yo'nalishlari, tarjima ta'limining innovatsion modellari hamda xalqaro ilmiy integratsiyani kuchaytirish masalalariga bag'ishlandi. Ushbu maqolada anjumanning

asosiy yo'nalishlari, ma'ruzachilarning ilmiy qarashlari va tadbirning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritiladi.

Asosiy qism:

1. Anjuman ishtirokchilari va ularning ilmiy-nazariy qarashlari

Xalqaro anjumanda bir qator mahalliy va xorijiy olimlar ishtirok etdi. Jumladan:

Yo'ldashev Ulug'bek Ravshanbekovich – Tarjimonlik fakulteti dekani

Jamoliddin Yoqubov – Fransuz tili nazariy fanlar kafedrası professori

Johanna Mayer – O'zbekistondagi DAAD vakolatxonasi rahbari

Petra Runge – Germaniyaning Yena universiteti professori

Dildora Mukhammadaminova – Gyote-instituti Til bo'limi boshlig'i

Alex Cormanski – Sorbonna Nuvel Parij 3 Universitetining faxriy professori

Sayed Mohamed Ahmed Korayem – Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası dotsenti

Rochad Salhi – Arab tili bo'yicha ekspert

Constanze Neiderhaus – Paderborn universiteti Nemis tili bo'limi rahbari

Ma'ruzachilar o'z mamlakatlarida qo'llanilayotgan zamonaviy tarjima ta'limi metodlari, ilmiy izlanishlar natijalari va amaliy tajribalar bilan o'rtoqlashdilar.

2. Tarjimonshunoslikdagi dolzarb muammolar

Bugungi kunda tarjimashunoslik sohasida bir qator muammolar mavjud bo'lib, anjumanda ular yuzasidan samarali fikrlar bildirildi:

2.1. Tarjima sifatini baholashda yagona mezonlarning yetishmasligi

Turli maktablar va yondashuvlar mavjudligi tarjima sifatini baholashni murakkablashtirmoqda. Bu borada xalqaro standartlar va korpus asosidagi baholash tizimlarini joriy etish zarurligi qayd etildi.

2.2. Mashina tarjimasi va inson tarjimoni o'rtasidagi o'zaro munosabat

Katta til modellari va AI-based tarjima tizimlarining rivojlanishi tarjimonlik kasbiga yangi talablarni qo'yimoqda. Aniqlik, kontekstual moslik, stilistik noziklik kabi jihatlarda inson tajribasining o'rni hali ham yuqori ekani ta'kidlandi.

2.3. Maxsus tarjima yo'nalishlarining rivojlanish sur'ati

Tibbiy tarjima, yuridik tarjima, diplomatik tarjima va texnik tarjimalar — eng ko'p talab qilinadigan yo'nalishlar bo'lib, talabalarning ushbu sohalarda amaliy tayyorgarligini kuchaytirish zarurligi aytib o'tildi.

3. Tilshunoslikdagi zamonaviy tendensiyalar

3.1. Kognitiv tilshunoslik

Kognitiv yondashuvning tarjima jarayonidagi ahamiyati, ya'ni tarjimonning ong jarayonlari, kontseptual metaforalar va til-kultur munosabatlarining o'rni muhokama qilindi.

3.2. Korpus lingvistikasi

Korpuslar tarjima ta'limi, leksikografiya va tarjimaviy izlanishlarda keng qo'llanilayotgani, o'zbek tilida to'laqonli elektron korpuslar yaratish masalasi ko'tarildi.

3.3. MuFilmlar, reklama materiallari, video-subtitrlash, audiodeskriptsiya kabi yo'nalishlarning jadal rivojlanayotgani anjumanning muhim mavzularidan biri bo'ldi.

4. Tarjima ta'limining innovatsion yondashuvlari

Anjumanda tarjima ta'limini modernizatsiya qilish bo'yicha quyidagi takliflar bildirildi:

loyihaviy ta'lim (project-based learning)ni keng joriy etish
onlayn platformalarda tarjima laboratoriyalari tashkil etish
xorijiy universitetlar bilan qo'shma kurslar yo'lga qo'yish
amaliy tarjima maktablarini shakllantirish

zamonaviy texnologiyalar, shu jumladan CAT-tools, AI va neyraltarjimalardan foydalanishni kuchaytirish

Ushbu yondashuvlar tarjima kompetensiyalarini zamon talablar darajasida shakllantirishga xizmat qiladi.

5. Xalqaro hamkorlikning ahamiyati

Xorijiy ma'ruzachilar bilan muloqotlar natijasida bir qator qo'shma loyihalar, ikki tomonlama ilmiy hamkorlik va professor-o'qituvchilar almashinuvi imkoniyatlari muhokama qilindi. Bu O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa

“Tarjimonshunoslik va tilshunoslikning dolzarb muammolari: zamonaviy tendensiyalar va yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman sohaning dolzarb masalalarini muhokama qilish, zamonaviy ilmiy yondashuvlarni o‘rganish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun muhim platforma bo‘ldi. Tadbir chog‘ida ko‘tarilgan muammolar, taqdim etilgan tajribalar va ilmiy takliflar tarjima ta’limini takomillashtirish, tilshunoslikdagi yangi yo‘nalishlarni o‘zlashtirish hamda yosh tadqiqotchilar uchun yangi ilmiy ufqlarni ochadi.

Shuningdek, anjuman tarjimashunoslikning global tendensiyalariga mos ravishda rivojlanishda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari faol ishtirok etayotganini ko‘rsatdi. Ushbu tadbir kelgusida qo‘shma ilmiy loyihalar, konferensiyalar va xalqaro ilmiy hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge, 2018.
2. Munday J. Introducing Translation Studies. Routledge, 2022.
3. Snell-Hornby M. Translation Studies: An Integrated Approach. John Benjamins, 2006.
4. Nida E. Toward a Science of Translating. Brill, 1964.
5. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti anjuman materiallari, 2025. I timodal tarjima